



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil “8” iyun

BUYRUQ № 24

Toshkent sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Statistika agentligining 2023- yil 28- apreldagi 20- son buyrug‘i bilan  
tasdiqlangan “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi idoralarini belgilash tizimi  
idoraviy statistik ma‘lumotnomasi”ga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 31- maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-81-son, 2023- yil 1- iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-82-son Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023- yil 15- apreldagi 10/6-son qarorini statistika ishlarini bajarish jarayonida foydalaniladigan statistik tasniflashlar tizimida aks ettirilishini ta‘minlash maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023- yil 28- apreldagi 20- son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Davlat va xo‘jalik boshqaruvi idoralarini belgilash tizimi (DBIBT–2023) idoraviy statistik ma‘lumotnomasiga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko‘rsatish boshqarmasi (N. Sheraliyev) yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registriga belgilangan tartibda zarur o‘zgartirishlarni kiritsin.

3. Statistika agentligining boshqarmalari, bo‘limlari va hududiy statistika boshqarmalari boshliqlari statistik ma‘lumotlarni tayyorlashda DBIBT idoraviy statistik ma‘lumotnomasiga, unga kiritilgan o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda qat’iy amal qilsinlar.

4. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (F. Berdibayev) ushbu buyruqni Statistika agentligi markaziy apparati boshqarmalari va hududiy statistika organlariga yetkazilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish direktor o‘rinbosarlari A. Ikramov, Z. Ziyayev zimmasiga yuklatilsin.

**Direktor**

**B. Begalov**

**Davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralarini  
belgilash tizimi idoraviy statistik ma'lumotnomasiga  
kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. Ma'lumotnomaga quyidagi o'zgartirishlar kiritilsin:

a) "O'zbek tilidagi nomi" ustunida:

"Tabiat resurslari vazirligi" degan so'zlar "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

"Invest Finance Bank" aksiyadorlik tijorat banki" degan so'zlar "Invest Finance Bank" aksiyadorlik jamiyati" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

b) "Rus tilidagi nomi" ustunida:

«Министерство природных ресурсов» degan so'zlar «Министерство экологии, охраны окружающей среды и изменения климата» degan so'zlar bilan almashtirilsin;

«Акционерно-коммерческий банк «Invest Finance Bank»» degan so'zlar «Акционерное общество «Invest Finance Bank»» degan so'zlar bilan almashtirilsin.

2. Ma'lumotnoma quyidagi satr bilan to'ldirilsin:

“

DBIBT kodi	KTUT kodi	STIR kodi	Davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralarining o'zbek tilidagi nomi	Davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralarining rus tilidagi nomi
04253	32837484	310532646	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi	Национальное агентство социальной защиты при Президенте Республики Узбекистан

”.